


“O`zkimyosanoat” AJ “Respublika tarmoqlararo sanoat yarmarkasi”da ishtirok etmoqda

// 14.12.2021

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/tarmoqlararo-sanoat-yarmarkasi>



Bugun “O`z ekspomarkaz”da “Respublika tarmoqlararo sanoat yarmarkasi” o`z faoliyatini boshladi. Yarmarkada “O`z kimyosanoat” aksiyadorlik jamiyati ham ishtirok etmoqda hamda tashkilot tizimidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar namoyish etilmoqda.

“Respublika tarmoqlararo sanoat yarmarkasi”ning birinchi kunida eksportbop va import o`rnini bosuvchi mahsulotlar ko`rgazmalari va ishlab chiqarish loyiha takliflari va sanoat kooperatsiyasini yanada rivojlantirish maqsadida taqdimotlar namoyish etildi. Jumladan, kunning ikkinchi yarmida “O`z kimyosanoat” AJ tomonidan “Kimyo sanoatining mahalliyashtirish va sanoatda kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish dasturlari” yuzasidan taqdimoti o`tkazildi.

Shuningdek, ko`rgazmada namoyish etilgan va import qilinayotgan mahsulotlar namunalarini tadbirkorlik subyektlari tomonidan o`zlashtirish bo`yicha B2B shaklida muzokaralar olib borish va hamkorlik bitimlari

tuzish jarayonlarida O`zbekiston Respublikasi Elektron kooperatsiya portali mutaxassislari tomonidan amaliy yordam ko`rsatilishi ko`zda tutilgan.

"Respublika tarmoqlararo sanoat yarmarkasi" joriy yilning 18 dekabriga qadar davom etadi.

"O`zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati



